



5. **Muloqatchanlik kompetentsiyasi** – til bilishi, turli xil insonlar bilan muloqatda bo‘lishi, jamoada o‘ziga xos o‘rinda turishi.

6. **Ijtimoiy-foydali mehnat kompetentsiyasi** – jamiyat rivojidagi ishtiroki, ijtimoiy foydali mehnat qilishi, iqtisodiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lishi.

7. **O‘z ustida ishlash kompetentsiyasi** – jismoniy, ma’anaviy, intellektual jihatdan o‘zini-o‘zi rivojlantirib borishi [2].

Endilikda har bir pedagog umumiy va kasbiy kompetentlikga ega bo‘lishigina emas, pedagogik nazariyani, kontsepsiyani va innovatsion texnologiyalarni faol, ijodiy tarzda o‘zlashtirishi ham kerak. SHundagina har bir bo‘lajak informatika kasbiy kompetentlikni egallab, kasbiy va metodik malakani o‘zlashtirgan holda psixologik-pedagogik tayyorgarlik tajribasida mustaqil ta’limning funktsiyalarini hamda o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil loyihalash usullarini tatbiq etib boradi.

Xulosa qilib aytganda, faqat bizning davlatimizdagina o‘qituvchilarga juda katta e’tibor qaratilgan. Bugun o‘qituvchi e’tiborda va hurmatda. Ana shu hurmatni yo‘qotmaslik o‘qituvchining o‘zini qo‘lida. Kompetentsiya ham, kompetentlik ham mutaxassisning kasbiy pedagogik faoliyatiga tayyorlik darajasi, sifatining integral tavsiflari bo‘lib hisoblanadi.

Kompetentsiya o‘qituvchining informatika tayyorlik darajasi me’yorini, kompetentlik esa mutaxassisda, avvaldanoq, shakllantirilgan, bilimlarga asoslangan, maktabdagi haqiqiy ta’limiy, tarbiyaviy faoliyati va ish tajribasi bilan mustahkamlangan, amaliy jihatdan tayyorgarligini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. –T.: Fan, 2014. -124 b.
2. Babanskiy YU.K. Izbrannyye nauchnyye trudy. –M.: Pedagogika, 1989. – 574 s.



3. Berdibaev, M. (2019). THE INDEPENDENT WORK OF FUTURE TEACHERS OF MATHEMATICS AS A METHOD OF FORMING PROFESSIONAL COMPETENCY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(4)*.

IQTIDORLI O‘QUVCHILARNI ANIQLASHDA QO‘LLANILADIGAN ZAMONAVIY USULLAR VA ULARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA YONDASHUVLAR

Mashrapova Sabina Turobjonovna

Toshkent shahar 324-sonli eksperimental davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o‘qitish metodlari, iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy usullarni amaliyotga tadbiq etish bo‘yicha yondashuvlar hamda ularni tarbiyalash va rivojlantirish tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qitish metodlari, iqtidorli o‘quvchilar, interfaol o‘qitish, yondashuvlar, ta’lim tizimi.

Abstract: This article analyzes modern teaching methods, approaches to the practical implementation of modern methods used to identify gifted students, their learning and development.

Keywords: teaching methods, gifted students, interactive learning, approaches, educational system.

KIRISH

Iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash va ular bilan ishlash ta’lim tizimi uchun muhim ahamiyatga ega. Chunki bunday o‘quvchilar jamiyat rivojlanishida katta o‘rin tutadi. Ular tabiiy yoki g‘ayrioddiy qobiliyatlari bilan ajralib turadi, ilmiy, ijodiy va texnik sohalarda muvaffaqiyatga erishish ehtimollari yuqori. Ammo bu qobiliyatlarni erta aniqlash va ularni rivojlantirish uchun maxsus metodlar talab qilinadi. Ushbu maqola iqtidorli o‘quvchilarni aniqlashda ishlatiladigan asosiy usullarni o‘rganadi va ularni rivojlantirish uchun eng



samarali usullardan foydalanishni taklif etadi. Ushbu maqolaning maqsadi - iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy usullar va ularni rivojlantirish bo'yicha yondashuvlarni tahlil qilishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi kunda zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishda axborot texnologiyalari yordamida o'qitishni tashkil etish, ta'lim berishning yangi uslublaridan foydalanish nihoyatda dolzarb masalaga aylandi. Ma'lumki, interfaol (interaktiv) tushunchasi inglizcha "interact" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "inter" – o'zaro, "act" – ish ko'rmoq, ishlamoq ma'nolarini anglatadi. Interfaol o'qitish, avvalo, muloqotli o'qitish bo'lib, jarayonning borishida o'qituvchi va o'quvchi orasida o'zaro ta'sir amalga oshiriladi. Interfaol o'qitishning mohiyati o'quv jarayonini shunday tashkil etishki, unda barcha o'quvchilar bilish jarayoniga jalb qilingan bo'lib, erkin va hamkorlikda fikrlash, tahlil qilish va birgalikda natijaviy fikrni hosil qilish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda quyidagi asosiy metodlardan foydalaniladi:

1. Test metodlari – IQ testlar, qobiliyat va ko'nikmalarni o'lchash uchun foydalaniladigan psixologik testlar yordamida o'quvchilarning iqtidor darajasi baholandi. Ushbu testlar orqali bolalarning analitik fikrlash, ijodkorlik, texnik bilimlar va matematik ko'nikmalari tahlil qilindi.
2. Pedagogik kuzatuv – o'qituvchilarning o'quvchilarga bo'lgan kundalik kuzatuvlari asosida, ularning o'quv jarayonidagi ishtiroki, fanlarga bo'lgan qiziqishi va faolliklari o'rganildi. Ushbu kuzatuvlar orqali iqtidorli o'quvchilar ajratib olindi.
3. Suhbat metodlari – o'quvchilar va ularning ota-onalari bilan individual suhbatlar o'tkazilib, ularning bilim olishga bo'lgan qiziqishlari, motivatsiyasi va qo'llab-quvvatlash darajasi aniqlashga harakat qilindi.
4. Portfolio tahlili – o'quvchilarning o'quv jarayonida yaratilgan ijodiy ishlar va ilmiy loyihalari tahlil qilindi. Bu orqali ularning real yutuqlari va potentsiali baholandi.




Har bir metod iqtidorni har xil jihatlaridan baholashga imkon beradi. Test metodlari o'quvchilarning kognitiv salohiyatini aniqlashda yordam bersa, pedagogik kuzatuv va suhbat metodlari ularning muloqot va ijodiy qobiliyatlarini ochib beradi.

O'quvchilarning iqtidorini rivojlantirishning samarali ishlashini ta'minlovchi pedagogik shart-sharoitlari quyidagicha olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi:

– o'quvchilarni ijodiy-amaliy topshiriqlar tuzish va yechish ko'nikmalarining hosil bo'lishini ta'minlovchi ijodiy faoliyatga jalb etish; – o'quvchilar ijodiy iqtidorining monitoringini olib borish;

– pedagoglar va iqtidorli o'quvchilarning ijodiy potensialini integratsiyalashni ta'minlash
(1- rasm)



1-rasm. O'quvchilar ijodiy faoliyatini integratsiyalash

Iqtidorli o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlashganda, ular farzandlarining barcha sohalarda birinchi bo'lish kabi xohishlarini ta'kidlaydilar. Masalan, ona mening farzandim qobiliyatli bo'lsa-yu, nima uchun o'qishni xohlamaydi, degan savolni berishi mumkin. Ba'zida shunday holatlar bo'ladiki, ota - onalar bolani haddan tashqari biror-bir mashg'ulot bilan shug'ullanishga majbur qilishlari, bolada ana shu faoliyatga nisbatan nafratni uyg'otishi mumkin, chunki ayni vaqtda bola boshqa mashg'ulotlarga qiziqayotgan bo'lishi mumkin. Biror muddat vaqt o'tsa, bolaning o'zi ixtiyoriy ravishda bu mashg'ulotga qiziqib qoladi [2.70b]

MUHOKAMA VA NATIJALAR



Iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda ko'p qirrali metodlardan foydalanish zarur. IQ testlar faqat bir tomonlama bilimlarni baholaydi, lekin ularning ijodiy yoki liderlik qobiliyatlarini aniqlash uchun yetarli emas[1.242b]. Pedagogik kuzatuv orqali o'qituvchilar o'quvchilarni sinfdagi xulq-atvoriga qarab baholaydilar. Bu jarayonda iqtidorli o'quvchilar ko'proq ijodiy ishlar qilishga intilishi, masalalarni tez yechishga harakat qilishi aniqlangan. Suhbat metodlari orqali o'quvchilarning o'zlariga bo'lgan ishonchi va motivatsiya darajasi ham oshkor bo'ldi. Ular o'zlarini qaysi sohada yaxshi his qilishlarini aniqlash, shuningdek, otalarning qo'llab-quvvatlashi bu jarayonda muhim o'rin tutishini ko'rsatdi. Portfolio tahlili iqtidorli o'quvchilarni amaliy yondashuvlar asosida aniqlashda juda samarali usul ekanligi aniqlandi, chunki o'quvchilarning ijodiy yutuqlari va loyiha ishlari ularning qobiliyatini yuksak darajada ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, iqtidorli o'quvchilarni aniqlashda qo'llaniladigan metodlarning hamkorlikda ishlashi samarador ekanligi ko'rsatildi. Yagona testlar orqali bunday o'quvchilarni to'liq baholash qiyin, chunki har bir bolaning qobiliyati va salohiyati turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli ko'p qirrali yondashuvlar, jumladan, psixologik testlar, pedagogik kuzatuv va ijodiy yutuqlar tahlili birgalikda qo'llanilishi kerak. Bundan tashqari, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv muhim ekanligi qayd etildi. Har bir o'quvchining o'ziga xos qobiliyatlari bor va ular bilan ishlashda mos usullarni qo'llash zarur. Misol uchun, ijodkor bolalar uchun badiiy va musiqiy loyihalar, texnik qobiliyatlarga ega bo'lganlar uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini qo'llash tavsiya etiladi.

XULOSA

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ular bilan samarali ishlash ta'lim tizimining rivojlanishi uchun muhimdir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'p qirrali usullar va individual yondashuv orqali ularning qobiliyatlarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash maqsadida motivatsion va qo'llab-quvvatlash usullarini joriy qilish zarur.

Darhaqiqat, iqtidorli o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonni tashkil etishda ularning mustaqilligi, tashabbuskorligi va mas'uliyatlarini oshirish



imkoniyatlarini izlash o'qituvchilarning muhim vazifalaridan biridir. Iqtidorli o'quvchilar muayyan o'quv predmetlari yoki ularning qismlarini o'z xohishlariga ko'ra chuqurroq o'zlashtirishga erishadilar. Ular turli bilimlar va axborotlarni tez, chuqur o'rganishni xohlaydilar va o'zlarining o'quv harakatlarini rejalashtiradilar. Shularni hisobga olgan holda iqtidorli o'quvchilarga mustaqil izlanish, o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob topishga ko'maklashadigan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish ehtiyoji mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. H.T. Omonov, N.X. Xo'jayev, S.A. Madyarova, E.U. Eshchonov "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", Toshkent – 2009
2. Rahmatova F.G'. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlashning nazariy-texnologik jihatlar. Uslubiy qo'llanma. Samarqand-2019. – S. 46–48, 66–68.
3. Войтенко Т. Обучение через саморазвитие и самовоспитание // Ж. Директор школы. – М., 2000. – №3. – С. 76–86.
4. Karimova M., Tuychieva R. The pedagogical basics of training students for professional, Moral and educational function // Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – № 10. – PP. 311–317.
- 5.

INFORMATIKA FANINING KASBIY FAOLIYATDAGI O'RNI

Murodova Shaxodat Shamurzayevna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining
tayanch doktoranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada informatika fanining inson hayoti va kasbiy faoliyatidagi o'rni, uning umumta'lim maktablarida o'qitilish zarurlari haqida qisqacha fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *informatika fani, kasb-hunar, bilim, ko'nikma.*

Umumta'lim maktabi o'quvchilarini kasbga yo'naltirish bugungi kunning muhim masalalaridan biri sanaldi. Chunki mamlakat taraqqiyoti va millat kelajagini yoshlar belgilaydi. Umumta'lim maktabi o'quvchilariga 8-9-sinflardanoq o'z oldilariga maqsad qo'yib, ma'lum bir kasb yoxud hunarni egallashga intilishlari zarurligini anglatish hamda